

Mintaqada ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish

Uzoqov, Jamshid Norboyevich

Совершенствование организационно- экономических механизмов развития паломнического туризма в Каракалпакской области

Узоков, Джамшид Норбоевич

Improvement of organizational and economic mechanisms of pilgrimage tourism development in Kashkadarya region

Uzokov, Jamshid Norboyevich

Received: February 14, 2024 Revised: February 18, 2024 Accepted: March 26, 2024 Published Online: April 01, 2024

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari keltirilgan bo'lib, Qashqadaryo mintaqasining tumanlar kesimida madaniy meros obyektlarining soni, joylashishi va ziyorat obyektlari ko'rsatib o'tilgan holda, mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari to'liq tahlil qilingan, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi yo'nalishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, mamlakat hududlarida mavjud madaniy merosiga qardosh millat va elatlarni keng jalb qilish, yosh avlodning xalqlarimiz tarixi va milliy-madaniy merosiga mehrni oshirish, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, umumturkiy madaniy merosni birgalikda dunyoga targ'ib qilish, bozorning turli segmentlariga yo'naltirilgan sayyohlik mahsuloti va xizmatlarini diversifikasiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, maqbul holda qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish kabilalar maqsad qilib olingani ilmiy maqolada aks ettirilgan. Ayni paytda ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu masalalar maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, mintaqa turizm, ziyorat turizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, turistik xizmatlar, turistik obyektlar, madaniy meros, turizm infratuzilmasi.

Аннотация. В данной статье представлены организационно-экономические механизмы развития паломнического туризма. Указаны количество, расположение и размещение объектов культурного наследия в районах Каракалпакской области. Организационно-экономические механизмы развития паломнического туризма в регионах всесторонне проанализированы на научной основе и даны предложения и рекомендации. Основываясь на большом потенциале Республики Узбекистан в направлении паломнического туризма, широком вовлечении братских наций и народов в культурное наследие, существующее на территориях страны, повышении любви молодого поколения к истории и национально-культурным наследию наших народов, сотрудничество в сфере туризма с государствами-членами Организации тюркских государств. В научной статье отражено, что оно направлено на дальнейшее расширение связей, совместное продвижение национального культурного

наследия в мир, диверсификацию туристических продуктов и услуг, ориентированных на различные сегменты рынка, повышают их конкурентоспособность, создают благоприятную среду внутреннего и международного паломнического туризма. На данный момент работа по совершенствованию организационно-экономических механизмов развития паломнического туризма требует проведения научных исследований с серьезным подходом к вопросу. Эти вопросы описаны в статье.

Ключевые слова: регион, региональный туризм, паломнический туризм, организационный экономический механизм, туристические услуги, туристические объекты, культурное наследие, туристическая инфраструктура.

Annotation. This article presents the organizational and economic mechanisms for the development of pilgrimage tourism. The number, location and location of cultural heritage sites in the districts of the Kashkadarya region are indicated. The organizational and economic mechanisms for the development of pilgrimage tourism in the regions are comprehensively analyzed on a scientific basis and proposals and recommendations are given. Based on the great potential of the Republic of Uzbekistan in the direction of pilgrimage tourism, the wide involvement of fraternal nations and peoples in the cultural heritage existing in the territories of the country, increasing the love of the younger generation for the history and national-cultural heritage of our peoples, cooperation in the field of tourism with member states of the Organization of Turkic states. The scientific article reflects that it is aimed at further expanding ties, jointly promoting national cultural heritage to the world, diversifying tourism products and services aimed at various market segments, increasing their competitiveness, and creating a favorable environment for domestic and international pilgrimage tourism. At the moment, work to improve the organizational and economic mechanisms for the development of pilgrimage tourism requires scientific research with a serious approach to the issue. These issues are described in the article.

Key words: region, regional tourism, pilgrimage tourism, organizational-economic mechanism, tourist services, tourist objects, cultural heritage, tourism infrastructure.

KIRISH

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ziyyarat turizm tarmog'i muhim o'rinni egallab kelmoqda. Uning dunyo miqyosidagi o'rni va roli yildan-yilga o'sib borayotgan bo'lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko'plab qismini o'z doirasiga birlashtirdi.

Mamlakatimizda turizm industriyasini zamonaviy asoslarda barqaror rivojlantirish, jahonda muhim ahamiyat kasb etgan ziyyarat turizmini rivojlantirish innovation infratuzimalarni barpo etish, sohaning jozibadorligini oshirish, turistik salohiyatdan maqsadli foydalanish, kadrlar malakasini zamonaviy texnologiyalar asosida tizimli oshirish, sohaga IT texnologiyalarini keng jory qilish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining ziyyarat turizmi yo'naliishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, mamlakatimiz hududlarida mavjud madaniy merosga qardosh millat va elatlarni keng jaib qilish, yosh avlodning xalqlarimiz tarixi va milliy-madaniy merosiga mehrini oshirish, Turkiy davlatlar tashkilotiga

a'zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, umumturkiy madaniy merosni birgalikda dunyoga targ'ib qilish, bozorning turli segmentlariga yo'naltirilgan sayyohlik mahsuloti va xizmatlarini diversifikasiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, maqbul holda qulay ichki va xalqaro ziyyarat turizmi muhitini yaratish kabilar maqsad qilib olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qashqadaryo mintaqasida turizmning salohiyatlari va istiqbolli turlaridan biri ziyyarat turizmi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq.

Bugungi kunda jahondagi turistik obyektlarning 90 foizidan ortig'i bevosita yoki bilvosita sig'inish yoki din bilan aloqador. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatlari bajarish uchun xorijda sinalgan, turizm sohasini hududiy jihatdan samarali tashkil etish va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarining qo'shilgan qiymat zanjiri

bilan bog'lanishini ta'minlashga qodir bo'lgan klaster yondashuvida ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy

masalalarni ishlab chiqishga A.A.Eshtayev [1], A.M.Abduvohidov [2], M.T.Alimova [3], YE.V.Golisheva [4], S.Nurmatova [5], S.R.Safayeva [6], B.X.Turayev [7], O.H.Hamidov [8] singari mamlakatimiz olimlari munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Mazkur ilmiy ishlarni tafsiflovchi o'ziga xoslik shundaki, aksariyat mualliflar uning asosiy funksional maqsadi

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha moddiy-madaniy meros obyektlari¹

t/r	Hududlar kesimida	Jami	Moddiy madaniy meros obyektlari				Ziyorat turizm obyektlari
			Arxeologik	Arxi-tektura	Monumental	Diqqatga sazovor joylar	
1	Qarshi shahri	60	28	25	6	1	Ko'k Gumbaz masjidi, Qashqadaryo ko'prigi, Abu Ubayda ibn al-Jarrah yodgorlik majmuasi, Aralovul masjidi, Bekmirqozoq madrasasi, Qarshi qal'a devori, Qilichboy madrasasi, Qo'rg'oncha masjidi, Maxollot masjidi, Odina majmuasi, Sardoba, O'zbek hammomi, Xo'ja Abdul Aziz madrasasi, Xo'ja Qurbon madrasasi, Sharafboy madrasasi
2	Qarshi tumani	128	105	15	4	4	Abu Mu'in Nasafiy yodgorlik majmuasi, Yetti tug' ota maqbarasi, Hazrat Sultan maqbarasi, Shayx Shilvi masjidi, Xo'ja Shamsiddin Xolponiy, Burxoniddin masjidi, Gumbaz masjidi, Dasht masjidi, Juma bozor masjidi, Kaxlak chorgumbaz masjidi, Mirmiron masjidi, Tosh masjidi, Fozil ota masjidi, Xalfa eshon masjidi, Xofiz sheroziy masjidi,
3	Shahrisabz tumani	162	138	22	0	2	Abdushukur Ogalik masjidi, Vardon kishlok masjidi, Dorutsaodat majmuasi, Kitob masjidi, Koba karvonsaroyi, Kunduzak masjid, Malik ashtar masjidi, Maxmud ibn Aminboy tarixiy uyi, Said ibn Vaqqos ziyoratgohi, Tezguzar kishlok masjidi, Urta asr xammomi, Xitoy kishlok masjidi, Xujamurod Baxshi masjidi, Chorsu savdo gumbazi, Chubin madrasasi, Shahrisabz qal'a devori, Eshon pir kozi masjidi, Arslonbobo ziyoratgohi

2 Muallif tomonidan shakllantirilgan

sifatida turizm infratuzilmasi obyektlari va turizm mahsulotiga talabni ta'minlash nuqtai nazaridan e'tibor qaratgan va ko'rib chiqqan holda, turizm salohiyati tushunchasiga turli xil ma'nolarni kiritadilar. Turizm salohiyatidan foydalanish va rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab ishlarga [9] [10] qaramay, turli tavsif, turli inqirozli hodisalar, jumladan, yanada rivojlanishiga yondashuvlar, shuningdek, bunday murakkab sharoitlarida turizmning rivojlanishi va uning salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirish mavjud emas, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslab beradi.

Ayni paytda ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollarini belgilashda mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, so'rvnomalar va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday sohani rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo'lsa, shu soha bo'yicha alohida davlat siyosati ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan va ular bo'yicha qizg'in ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga har bir viloyat va hudud o'zining xususiyatlaridan, mavjud turistik resurslaridan kelib chiqqan holda yondashilmoqda (1-jadval).

1-jadval ma'lumotidan ko'rinish turibdiki, Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar va chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Shuni qayd etish lozimki, viloyat bo'yicha jami 1321 ta madaniy meros obyektlari, shu jumladan, 1043 ta arxeologik obyektlar, 208 ta arxitektura yodgorliklari, 43 ta monumentlar va 27 diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Shular ichida eng ko'p madaniy meros obyektlari Shahrabsabz, Kitob, G'uzor va

Qarshi tumanlarida joylashgan bo'lib, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ziyorat turizm obyektlari mavjud. Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizm obyektlaridan eng ko'p tashrif buyuradigan joy Oqsaroy majmuasi, Ko'kgumbaz masjidi, Amir Temur kichik g'ori, Hazrati Bashir maqbarasi, Hazrati Sulton maqbarasi, Abu Mu'in Nasafiy va Abu Ubayda ibn al-Jarroh yodgorlik majmualari hisoblanadi. Ushbu ziyorat obyektlariga 2023 yilda 1398 nafar ziyoratchi tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2019 yilga nisbatan 2 baravarga qisqargan. Buning asosiy sababi COVID-19 koronavirus pandemiyasi va ziyorat turizm infratuzilmasining kam rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuni qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ziyorat turizmining Qashqadaryo viloyatidagi ulushi 2019 yilga nisbatan 2023 yilda 2,5 % dan 4,5 % ga oshgan, ammo ziyorat turizm obyektlarining ma'lumotlar bazasi yo'qligi, ziyorat turizmining past darajada ekanligi va uzoq joylarda joylashganligidan dalolat beradi.

Shu sababli bizning fikrimizcha, Qashqadaryo viloyati ziyorat turizmi klasterini yaratish, ziyoratchilar uchun "Yo'l xaritasini" ishlab chiqish va eng arzon ziyorat turizm marshrutlarini ishlab chiqishimiz lozim. Ushbu fikrni amalga oshirish natijasida Qashqadaryo mintaqasini ziyorat uchun tashrif buyuruvchilarning oqimini ko'payishi va shu asosda mintaqaga iqtisodiyotiga qo'shimcha ravishda daromad keltirish mumkin. Bu esa:

Birinchidan, mintaqasi infratuzilmasini yaxshilanishga olib boradi (yo'l, transport-kommunikasiya, suv, mehmonxona, turli turdag'i mehmonlarni joylashtirish obyektlari va boshqalar)

Ikkinchidan, Qashqadaryo viloyatining tumanlar kesimida qo'shimcha ish joylarining ochilishi evaziga aholini ish bilan ta'minlash darajasi va daromadlari oshishi hisobiga mintaqasi aholisining turmush darajasi yaxshilanadi.

Uchinchidan, xorijiy mamlakatlardan tashrif buyuruvchilarning yanada ko'payishiga olib keladi va ayrim ziyorat obyektlariga xorijiy investitsiyalar kiritish imkoniyatlari bo'ladi.

2-jadval ma'lumotlarida ziyorat turizmi uchun tashrif buyuruvchilar joylashish holati bo'yicha 3 toifada, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarli ziyoratchilari, MDH ziyoratchilari va uzoq xorij davlatlaridan tashrif

buyuruvchi ziyoratchilar ko'rsatilgan.

Tashrif buyuruvchi ziyoratchilarning qay darajada sifatli, barcha qulayliklarga ega mehmonxonalar, xostellar, va xonadonlarda joylashishi ziyorat turizmining kelgusi istiqbolini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2019 yilda 105221 nafar ziyoratchilar tashrif buyurishgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ziyoratchilari 54,6 foizni, MDH ziyoratchilari 12,2 foizni va uzoq xorij davlatlari ziyoratchilari 33,2 foizni tashkil etadi. Shu jumladan, Qashqadaryo mintaqasida mutanosiban

53,2 foizni, 8,4 va 38,4 foizni tashkil etib, jami tashrif buyurgan ziyoratchilarning Qashqadaryodagi ulushi 2,5 foizga to'g'ri keladi (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyatiga safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilarning joylashish holati

T/R	KO'RSATKICHLAR	YILLAR					2023 YILDA 2019 YILGA NISBATAN O'ZGARISHI (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha tashrif buyurgan ziyoratchilar:							
1	O'zbekiston Respublikasidan	57452	28022	19270	21197	23741	41,3
2	MDH mamlakatlardan	12881	4626	1988	2189	2452	19,0
3	Uzoq xorij davlatlaridan	34888	9534	5787	6368	7133	20,4
4	JAMI	105221	42182	27045	29754	33326	31,7
Qashqadaryo viloyati hududiga tashrif buyurgan ziyoratchilar:							
1	O'zbekiston Respublikasidan	1416	177	1065	1162	1289	91,0
2	MDH mamlakatlardan	224	47	10	12	14	6,3
3	Uzoq xorij davlatlaridan	1021	0	76	85	95	9,3
4	JAMI	2661	224	1151	1259	1398	52,5
5	Tashrif buyuruvchi ziyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi ulushi (%) da	2,5	0,5	4,3	4,2	4,2	*

Bu ko'rsatkichlar yillar davomida o'zgarib borgan. Buning asosiy sababi 2020-2021 yillarda Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri oqibatida keyingi yillarda ziyoratchilarning tashrifi mintaqada kamayib borgan. Shuni qayd etishimiz lozimki, 2023 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ziyorat turizmiga tashrif buyuruvchi ziyoratchilar 2019 yilga nisbatan 31,7 foizga kamaygan, shu jumladan, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 52,5 foizga kamaygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa shuki, Qashqadaryo viloyatida turizmning eng salohiyatli va istiqbolli turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bizningcha, mintqa ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: ziyorat turizm infratuzilmasini ko'paytirib, ularni yanada kuchaytirish; ziyorat turizm xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy qilish; ziyoratturizmgamo'ljallangan obyektlarni muxandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ularni kuchaytirish; madaniy meros obyektlari va muzeylarda "SMART" texnologiyasini joriy etish; xorijiy sayyoohlarni qabul kilishga tayyorlash, ularga tungi vaqtida faoliyat ko'rsatishiga ruxsat berish tartibini o'rnatish maqsadida restoranlarni xatlovdan o'tkazish; tematik parklarni tadbirdorlik subyektlarini jalb qilgan holda tashkil etish; turistlarga milliy an'analarimizdan tortib, milliy taomlarimiz va boshqa milliy qadriyatlarimizni ko'rsatadigan sharoitni yaratish lozim; Qashqadaryo viloyatining imkoniyatidan kelib chiqib, shaharga yaqin joylarda ekologik ziyorat turizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatini ishga solish maqsadga muvofiq.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

- Uzoqov, Jamshid Norboevich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi / **Узоков, Джамшид Норбоевич** – соискатель Каршинского инженерно-экономического института / **Uzokov, Jamshid**

Norboevich - independent researcher of the Karshi Engineering and Economic Institute

<https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: "Ipak yo'lli" Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 8 bet;
- [2] Abduvohidov A.M., Umirova D.S., Abriev Z.S. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. – T.:TDIU, 2019. 43 bet;
- [3] Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.;
- [4] Голишева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автoref. дис. ... канд. экон. наук. – Т., 2012. – 25 с.;
- [5] Ф.М., Жалолиддинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после СОВИД-19.//Научно-электронный журнал «Экономические и инновационные технологии», 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341;
- [6] Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish: i.f.d.. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018;
- [7] Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автoref... докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.;
- [8] Hamidov O.H. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss... avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.
- [9] Samiyeva G. T., Khaydarov B. I. Issues of Socio-Economic Development of the Living Standard of the Population // EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 1-4.
- [10] Samiyeva, G. (2023). FOREIGN EXPERIENCE IN IMPLEMENTING REFORMS TO IMPROVE THE LIFE OF THE POPULATION. THE INNOVATION ECONOMY, 1(03). Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/485>